

KOXLEAR NEVRITNI KELITIRIB CHIQRUVCHI OMILLARNI O'RGANISH

**Tursunpo'latov Ilhomjon Qodirjon O'g'li, 401-guruh 1 Pediatriya va xalq
tabobati fakulteti**

**Ilmiy rahbar: PhD, Nurmukhamedova Firuza Bahtiyorovna
TashPMI, otorinoloringologiya, bolalar otorinoloringologiyasi va bolalar
stomatologiyasi**

Dolzarbligi: Hozirgi vaqtda tibbiyotning sezilarli darajada rivojlangan bo'lishiga qaramay insonlar o'rtasida koxlear nevrit kasalligi juda ko'p uchrab turibdi. Bu o'z navbatida bemorlarda erta kundand eshitish qobiliyatini pasayishiga yoki butunlay yo'qolishiga olib kelmoqda. Bu kasallikni kelib chiqish mexanizmini va bunga sabab bo'luvchi faktorlarni o'rganish va uni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish bemorlar orasida nogironlik darajasini kamayishiga olib keladi.

Ishning maqsadi. Koxlear nevrit bilan kasallangan bemorlarda kasallikni keltirib chiqargan omil va mexanizmlarini o'rganish.

Material va usullar: ToshPMI LOR bo'limiga murojat qilgan 35 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan 20 ta bemor tekshirildi. Shifoxonaga kelgan bemorlarga MKB-10 bo'yicha tasdiqlangan mezonlar asosida koxlear nevrit tashxisi qo'yilgan. Barcha bemorlarda umumiy qon taxlili, umumiy LOR tekshiruvi - rinoskopiya, otoskopiya, faringoskopiya, akumetriya, tonal audimetriya, bo'yin qon - tomirlarining doplerografiyasi va TORCH infeksiyasiga tekshiruvlari o'tkazilgan.

Olingan natijalar: Bemorlarda eshitish pasayishining kelib chiqishi 2-25 yilni tashkil qilgan. Ulardan 13 tasi ayol (65%) va 7 tasi erkak (35%) kishini tashkil qiladi. Tekshirilgan bemorlarning 2 tasida (10%) 1 daraja, 5 tasida (25%) 2 daraja, 10 tasida (50%) 3 daraja va 3 tasida (15%) 4 daraja eshitishning pasayishi aniqlandi. Ananex yig'ish vaqtida, murojat qilgan bemorlarning 3 tasida (15%) kasallik infeksiya natijasida rivojlanganligi aniqlandi. Ulardan 2 nafari yoshligida epidemik meningit, va 1 tasi qizamiq bilan og'rikan. Tekshirilgan bemorlarning 2 tasida (10%) ototoksik dorilarni qabul qilgani aniqlandi. Ototoksik dorilardan - streptomisin va gentamitsin dorilarini qabul qilganligi aniqlandi. Streptomisin qabul qiluvchi bemor sil kasalligi bilan "D" nazoratida turadi va 12 yil mobaynida abul qiladi. Ushbu dorilar ta'sirida ichki quloq qon tomirlarida, chig'anoq retseptori hujayralarida o'ziga xos potomorfologik o'zgarishlarni keltirib chiqarishi o'rganilgan. Bemorlarning 1 nafarida (5%) bosh miya va quloqning mexanik akustik jarohatlari tufayli yuzaga kelgan jarohatdan so'nggi yallig'lanishi aniqlandi. Bu jarayon kasb bilan bog'liq bolib ichki quloqqa ishlab chiqarish korxonalaridagi shovqin va vibratsiyani davomli ta'sirida rivojlangan. 2 nafar (10%) bemorda bo'yin osteoxondrozi va 5 nafar (25%) bemor gipertoniya kasalligi bilan «D» nazoratida turishi aniqlandi, ulardan 2 tasida (10%) qantli diabet kasalligi mavjud. 2 nafar (10%) bemorda TORCH infekciyasidan herpesning yuqori titri aniqlandi. Bemorlarning barchasida audiogrammada suyak va havo o'tkazuvchanligi HUHr yuqori chastotalarda pastga yo'nalib orasidagi masofa yo'qolganligi kuzatilgan. Qolgan 5 nafar bemorda (25%) idiopatik koxlear nevrit aniqlandi, bu bemorlarda anamnez va tekshiruvlar natijasida kasallikni keltirib chiqaruvchi omillar aniqlanmadi.

Xulosa: 1. Tashxislash usullarining rivojlanganligiga qaramay, bugungi kunda etiologik omil sababli aniqlanmay qolayotgan bemorlar borligi bu borada izlanishlarni davom ettirish kerak ekanligini ko'rsatadi.

2. Kasallikka sabab bo'luvchi etiologik omillarni aniqlash va bartaraf qilish bemorlarni eshitish qobiliyatini saqlab qolishga va nogironlikning oldini olishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Мищенко, Т. С., Здесенко, И. В., Линская, А. В., & Мищенко, В. Н. (2011). Новые мишени

терапевтического воздействия у пациентов с хронической ишемией головного мозга. Международный неврологический журнал, (2), 7-13.